

MOLIYA INFRATUZILMASI SHAROITIDA FISKAL SIYOSATNING IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI

Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
To'rtko'l fakulteti katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19691012>

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda moliya infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Davlatning fiskal siyosati iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy makroiqtisodiy instrumentlaridan biri bo'lib, u davlat byudjeti orqali daromadlarni shakllantirish va xarajatlarni taqsimlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Fiskal siyosatning bosh maqsadi - iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlik darajasini oshirish hamda ijtimoiy farovonlikni yaxshilashdan iborat.

Xususan, fiskal siyosat moliya infratuzilmasining muhim tarkibiy elementi sifatida iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladigan xarajatlar, ayniqsa ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar aholining bilim va kasbiy malakasini oshirishga, sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan xarajatlar esa ishchi kuchining sog'lomligi va mehnat unumdorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fan va ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar innovatsion faoliyatni rivojlantirib, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Shu sababli fiskal siyosat doirasida ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan davlat xarajatlari iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Quyidagi jadval aynan ushbu jarayonni O'zbekiston sharoitida, ya'ni inson kapitaliga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining o'sib borishi orqali iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotganini aks ettiradi.

1-jadval

Yillar	Ta'lim	Sog'liqni saqlash	Fan sohasi
2021	39640,8	23816,8	1081,1
2022	50271,3	27288,3	1447,1
2023	61220,3	31066,6	1774,1
2024(yarim yillik)	24700,2	16529,6	855,0
2025(yarim yillik)	29789,8	19369,8	962,1

[1] Ta'limga, sog'liqni saqlash va fanga xarajatlar (maqsadli jamg'armalarsiz, mlrd. so'mda)

Yuqoridagi jadvalda tahlil qilinayotgan davrning dastlabki bosqichida, ya'ni 2021–2023 yillarda barcha ijtimoiy sohalar bo'yicha barqaror va yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan. Ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar 39 640,8 mlrd so'mdan 61 220,3 mlrd so'mga yetib, sezilarli darajada oshgan. Bu esa ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va iqtisodiyotning bilimga asoslangan modeliga o'tish jarayonining kuchayganligini bildiradi. Sog'liqni saqlash sohasida ham o'sish tendensiyasi saqlanib qolgan bo'lib, 2021-

yildagi 23 816,8 mlrd soʻmdan 2023-yilda 31 066,6 mlrd soʻmga yetgan. Bu aholining salomatligini mustahkamlash, demografik barqarorlikni taʼminlash hamda mehnat resurslarining sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning natijasi sifatida baholanadi. Fan sohasi xarajatlari nisbatan kichik ulushga ega boʻlsa-da, 2021-2023 yillar oraligʻida izchil oʻsib, 1 081,1 mlrd soʻmdan 1 774,1 mlrd soʻmga yetgan. Bu esa innovatsion rivojlanish strategiyasining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

2024-2025 yillar maʼlumotlari yarim yillik koʻrsatkichlar boʻlishiga qaramay, ularning tahlili muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. 2024-yilda vaqtinchalik pasayish kuzatilgan boʻlsa-da, 2025-yilning mos davrida barcha sohalar boʻyicha oʻsish qayta tiklangan. Bu fiskal siyosatning ijtimoiy yoʻnaltirilganligi saqlanib qolayotganini va byudjet xarajatlarining ustuvor yoʻnalishlari oʻzgarmaganini koʻrsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, 2021-2025 yillar davomida Oʻzbekistonda davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy yoʻnaltirilganligi izchil kuchayib borib, taʼlim, sogʻliqni saqlash va fan sohalariga ajratilayotgan mablagʻlar hajmi barqaror oʻsish tendensiyasiga ega boʻlgan. Mazkur jarayon davlatning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan fiskal siyosatining ustuvorligini ifodalaydi hamda uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishni taʼminlashning muhim omili sifatida namoyon boʻladi. Shu bilan birga, tahlillar fan sohasiga ajratilayotgan mablagʻlar ulushining nisbatan past darajada saqlanib qolayotganini hamda byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish zarurligini koʻrsatdi. Ayniqsa, investitsion yoʻnaltirilgan xarajatlarning natijadorligini baholash, hududlar kesimida moliyaviy resurslar taqsimotini optimallashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish fiskal siyosat samaradorligini oshirishning muhim yoʻnalishlari sifatida belgilandi. Natijada, davlat byudjeti orqali inson kapitaliga yoʻnaltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish bilan bir qatorda, ularning samaradorligini taʼminlash, fan va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy oʻsishning barqaror surʼatlariga erishish mumkinligi asoslab berildi.

Xulosa qiladigan boʻlsak, 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan 21-maqсад milliy iqtisodiyotda barqaror va yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlashga qaratilgan¹. Ushbu maqsadga koʻra, kelgusi besh yil davomida aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar oshirish hamda 2030-yilga borib aholi jon boshiga daromadni 4 ming AQSh dollaridan yuqori darajaga yetkazish rejalashtirilgan. Mazkur maqsadga erishishda fiskal siyosat muhim instrumentlardan biri hisoblanadi. Davlat byudjeti orqali iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qoʻllab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, taʼlim, sogʻliqni saqlash va ilm-fan sohalariga investitsiyalarni koʻpaytirish inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa oʻz navbatida mehnat unumdorligini oshiradi, innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi va iqtisodiyotning yuqori qoʻshilgan qiymatli tarmoqlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
2. 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

¹ <https://lex.uz/docs/-5841063>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son,21-maqсад.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari. 2025 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri),01.01.2020.
5. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati (darslik). Toshkent: "Akadem nashr", 2011.
6. [http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
7. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari
8. <https://lex.uz/docs/-5841063>
9. [http:// www.webofscience.com](http://www.webofscience.com) – Xalqaro ilmiy maqolalar platformalari
10. <https://siat.stat.uz/reports-filed/544/meta-data-Rasmiy> statistika ma'lumotlari
11. <https://kun.uz/news/2025/08/07/yarim-yillik-davlat-budjeti-asosiy-raqamlar>